IMOM AL-BUXORIYNING HADIS ILMIGA QO'SHGAN BEQIYOS HISSASI

To'xtasinov Mira'zam Abdujabbor o'g'li
mirazamtohktasinov@gmail.com
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Al-Buxoriyning hayot yo'llari, hadis ilmiga qo'shgan beqiyos hissalari shu bilan islom dini rivojiga bag'ishlangan ilmiy merosi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: "shayxul islom", hadis, "Al-Jomi as-sahih", sahih, g'ayri sahih, "Duosi mustajab ayol", Buxoro, Makka, Madina, sahoba, kalom ilmi.

Islom olamida o'zining o'tkir zehni va ilm o'rganishda barchaga namuna bo'lgan buyuk hadisshunos olim Imom Al-Buxoriyning tavalludlari haqida bir necha qarashlar mavjud. U kishining tug'ilgan vaqtlari hijriy 194-yil shavvol oyining 13-kunida "salotu-l-jumada" (milodiy 810-yil 20-iyul) tavallud topganlar. Tug'ilgan kunining aniq sana va oylarigicha yetib kelishi otasining o'z qo'llari bilan u haqda yozib qoldirgan qog'ozning zamondoshlarigacha yetib kelganligida edi.

Imom al-Buxoriyning ismi Muhammad, kunyasi Abu Abdulloh, laqabi ba'zan Imom al-Muqaddisiyn (muhaddislarning imomi, peshvosi), nasabi Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra ibn Bardezbex ibn Bazazbexdir. Oxiridagi ikki Bardezbex ibn Bazazbex jumlalaridan ko'rinib turibdiki imom Al-Buxoriyning asl kelib chiqishi ajamlar nasabiga borib taqaladi. Ushbu ma'lumotlar ko'plab adabiyotlar va manbalarda uchragani bois muhaddislarning ta'kidlashlariga ko'ra "Bardezbax" so'zi arabcha "zori" ya'ni (dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi kishi) degan ma'noni bildiradi.[1]

Imom Al-Buxoriyning otasi o'z davrining yetuk va ma'rifatli kishilaridan biri bo'lgan. Buxoro shahrida mashhur muhaddislardan biri bo'lgan Ismoil ba'zan savdo ishlari bilan ham shug'ullanib turgan. Ammo u kishining qalamlariga mansub bo'lgan biror bir asr bizgacha yetib kelmagan. Shunday bo'lsada butun islom olamida mashhur bo'lgan buyuk hadisshunos va komil insonni tarbiyalab kamolga yetkazgan. Manbalarda ma'lumot berishlaricha Ismoil juda ro'stgo'y, taqvodor, xudojo'y va halol inson bo'lgan. Imom al-Buxoriyning onasi ham o'zinig go'zal islomiy hulqi, diyonatli, sadoqatli ayol va g'oyatda oqila va fozila ayol sifatida tanilgan edi.

Imom Al-Buxoriy otasidan juda erta ayriladi. Onasi esa unga yaxshi ta'lim tarbiya beradi. Birmuncha ulg'ayib aqli raso bo'lganidan so'ng uning qalbida islomiy ilmlar va payg'ambarimizning muborak hadislarini o'rganishga va yodlashga moyillik uyg'onadi va bu moyillik borgan sari kuchayib boradi. U dastavval Ibn al-Muborak va Voqiyning hadislarga oid asarlarini yod ola boshlaydi. Imom al-Buxoriyning kotibi, uning asosiy tasnifi "Sahih" asarining roviylaridan biri bo'lgan Abu Jafar Muhammad ibn Abu Xotam al-Varroq shunday deb yozadi: "Al-Buxoriyni hadis yod olish ilhomi menga boshlang'ich maktabda o'qiyotganimda kelgan edi" deganini eshitgan edim. Shunda necha yoshda edingiz deb so'raganimda "u kishi o'n yoshda balkim undan ham kichikroq edim" deya javob bergan edilar.

Imom al-Buxoriyning islom olamida shu darajaga yetishishida albatta ustozlarining hissalari ham bor. Uning ilk ustozlaridan biri o'sha davrda Buxoroning mashhur va taniqli muhaddislaridan biri bo'lgan ad-Dohiliydan dastlabki bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradi. Xadislarni o'rganish bo'yicha bu olimning tashkil etgan to'garaklarining nomi butun islom olamiga dong'i ketgan edi va uning faoliyati yoyilib ulkan samara bera boshlagan edi.

[1] Buyuk yurt allomalari. O'zbekiston xalqaro Islom Akedemiyasi. (3-nashr). –T:O'zbekiston, 2020. B. 5.

Kunlarning birida ad-Dohiliy odatdagidek o'z talabalariga saboq berar, al-Buxoriy ham boshqa tolibi-ilmlar qatori darsni tinglab o'tirgan edi. Shunda ad-Dohiliy bir hadisni isnodi haqida gapirib "Sufyon Abu Zubayradan, u Ibrohimdan" deb zikr qildi. Shunda al-Buxoriy: "Abu Zubayr hech vaqt Ibrohimdan rivoyat qilmagan" deya ad-Dohiliyni bu xatodan ogohlantirdi. Ad- Dohiliy esa dag'al ovozda uni gapini bo'ldi, al-Buxoriy xotirjamlikda agar ishonmasangiz qo'lingizdagi manbaga qarang dedi. Ad-Dohiliy manbaga qarab xato qilganini anglab yetdi va al-Buxoriydan asli qanday bo'lishini so'radi. Al-Buxoriy esa ustozi Dohiliyga qarab javob berdi: "Zubayr ibn Adiy Ibrohimdan rivoyat qilgan" deya ustozini lol qoldiradi.[2] Shu paytda u bor yog'i o'n bir yoshda edi. Bundan ko'rinib turibdiki o'n bir yoshli bolakay o'zidan yoshi va bilimi jihatdan katta bo'lgan ustozini xatosini tuzatishi uni naqadar ilmli va zehni o'tkir ekanligidan dalolat beradi.

Imom-al Buxoriy bu haqda shunday deydilar " Imom Buxoriy aytadilar: "Ad-Doxiliy bir kuni odamlarga dars o'qib berayotib: Sufyon Abu Zubayrdan, u Ibrohimdan rivoyat qilgan, – dedi. Shunda Men: Ey Abu Falon! Abu Zubayr Ibrohimdan rivoyat qilmagan, – dedim.U meni urushib berdi. Men: Agar sizda buning asli bo'lsa unga qarab qo'ying, – dedim. So'ng u ichkariga kirib asliga murojaat qildi va chiqib: Bu qanday bo'ldi, ey bola?!- deb hayron bo'ldi. U, Zubayr ibn Adiy (131h. vafot etgan) bo'lib, u Ibrohim Naxa'iydan (96h. vafot etgan)[3] rivoyat qilgan, – dedim. Shundan keyin u mendan qalamimni olib, kitobidagi xatoni to'g'rilab qo'ydi va to'g'ri aytibsan, – dedi". Imom Buxoriyning ba'zi do'stlari undan: O'shanda necha yoshda edingiz, deb so'rashganda, u: "O'n bir yoshda edim, o'n sakkiz yoshimni qoralaganimda esa, sahobalar, tobe'inlar va ularning aytgan so'zlari haqida kitob tasnif qila boshladim. Oydin kechalarda Rasulullo sallallohu alayhi vasallamning qabrlari yonida "Tarix" kitobini yozdim", deb javob beradilar".

Buxoro shahrida o'n olti yosh qadar ilm o'rgangan al-Buxoriy o'z akasi Ahmad va onasi bilan birgalikda ilm maqsadida va haj ziyorati maqsadi ila Makka shahriga borishadi. Haj mavsumi o'z nihoyasiga yetgach akasi va onasini kuzatib o'zi esa Makkayi-Mukkarramada payg'ambarimizning hadislarini o'rganish maqsadi ila qoladi. Imom Al-Buxoriy butun hayotini hadis ilmini mukammal darajada o'rganishga va ularni jamlashga bag'ishladi. Qayerda bo'lmasin doimo bu sharafli vazifani tark etmadi. Hayoti davomida ilm o'rganish maqsadida barcha islom mamalakatlariga, ba'zi birlariga esa bir necha marta safarlar qildi. Qayerga bormasin u yerdagi barcha muhaddislardan hadislarni eshitib ulardan barhamand bo'lar edi. Abu Abdulloh Hokimiyning yozishicha, Buxoriy faqat ilm o'rganish maqsadida ko'plab mamlakatlarga safarlar qilgan va u joylarda uzoq muddat yashab, ustozlardan saboq olgan. Allomaning hadis ilmining o'rganish maqsadida bosib o'tgan bir martalik yo'li 13900 km tashkil qiladi.[4]

Imom al-Buxoriyning yoshlikdagi shogirdlarining sanog'i yo'q edi. Yoshlik chog'laridayoq Basra shahri olimlari uning ortidan yurib yoki duch kelgan joydan to'xtatib olib hadis so'ragan holatlari ham bo'lgan. "Al-Jome as-sahih" dagi ma'lumotlarga qaraganda u kishini qo'l ostilarida to'qqson ming nafar tolibi ilm ta'lim olgan. Ular safida mashhur

---

[2]Imom Buxoriy. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekistondagi Islom svilizatsiyasi markazi tomonidan nashr qilingan IBXITM-2020. B. 4.

[3] https://moturidiy.uz/oz/news/1639.

[4] Imom Buxoriy. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekistondagi Islom svilizatsiyasi markazi tomonidan nashr qilingan IBXITM-2020. B. 8.

muhaddislar bo'lib ularga: Muslim ibn Hajjoj, Imom Termiziy, Imom Nasoiy, Ibn Xuzayma, Imom Abu Dovud, Muhammad ibn Yusuf Firabriy, Ibrohim ibn Ma'qal Nasafiy kabi ko'plab ulug' din muhaddislari bor edi. Imom Buxoriyning shogirdlari ham islom olamida tanilgan mashhur muhaddislar bo'lib, ularning asarlari islom ilmining rivojiga salmog'li hissa qo'shgan. Uning ba'zi shogirdlari ishonchli muhaddislar darajasiga yetgan. Bular qatorida Imom Muslim, Imom Termiziy, Imom Nasaviy va Imom Dovud kabi muhaddislar yetishib chiqqan.

Imom al-Buxoriy uzoq safarlardan ona yurti Buxoroga qaytgach, talabalar va ulamolarga hadis ilmidan saboq beradi va uning targ'ibotchisiga aylanadi. Rivoyatlarga ko'ra, xalifaning Buxorodagi noibi Xolid ibn Ahmad ibn Xolid az-Zuhaliy uni saroyiga kelib hadis ilmidan saboq berishga taklif etadi. Ammo Imom Buxoriy bu taklifni qabul qilmaydi. Shu tufayli al-Buxoriy bilan amir Xolid ibn Ahmad az-Zuhalliy munosabatlariga rahna tushadi. Bunga ba'zi hasadgo'y shaxslarning ig'volari ham sabab bo'ladi. Amir buyuk allomani shahardan chiqib ketishga farmon beradi. Uni Samarqand ulamolari o'z yurtlariga taklif etadilar. Imom Buxoriy yo'lga chiqadi. Ammo Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida (hozirgi Poyariq tumani) betob bo'lib qoladi va shu yerda hijriy 256-yili ramazon oyining oxirgi kuni (milodiy 870-yil 1-sentyabr) 62 yoshida vafot etadi va shu yerga dafn etiladi.

Ibn Kasirning ma'lumotlariga qaraganda "Imom al-Buxoriy Ramazon hayiti kechasi shom namozi vaqtida vafot etadi. Uni uchta oq libosda kafanlashgan edi va dafn etilayotganda qabridan mushkdan ham yaxshiroq xushbo'y hid (mushk va qahrabo aralshmasi) tarqaldi" deya ma'lumot bergan.

Olimlarning ta'kidlashlaricha, Imom al-Buxoriy juda boy ilmiy meros qolirgan. Uning "Al-Jome' as-sahih", "Al-adab almufrad", "At-Tarix al-kibor", "At-Tarix as-sag'iyr", "Al-qiroatu xalfa-l-Imom", "Vaf'ul-yadini fi-s-Saloti" kabi asarlari mavjud bo'lib, qo'lyozmalari bizgacha yetib kelgan. Ammo "At-Tarix al-avsat", "At-Tafsir al-kabir", "Kitob-ul-hiba" nomli asarlari ham bo'lganligi ma'lum, lekin bular bizgacha yetib kelmagan.

Shubhasiz, bu asarlaridan eng yetuk, shoh asari "Al-Jome'-as sahih"dir. Bu asar "Sahih al-Buxoriy" nomi bilan ham dunyoda mashhur. 4 jildan iborat mazkur kitobda payg'ambarimiz sallollohu alayhi vasallam hadislaridan tashqari, islom huquqshunosligi, islom marosimlari, axloq-odob, ta'lim-tarbiya, tarix va etnografiyaga oid ma'lumotlar ham berilgan. Unga 600 ming hadisdan 7275 ta eng "sahih" hadislar kiritilgan bo'lib, takrorlanmaydigan 4000 hadisdan iboratdir.

Butun Islom olamida "Qur'oni karimdan" keying eng mo'tabar manba sifatida "Al-Jome'-as sahih" yoki "Sahih al-Buxoriy" asari e'tirof etiladi va islom olamida hozirgi kunga qadar o'z qadr qimmatiga ega bo'lgan eng qimmatli asar hisoblanadi.

Imom Al-Buxoriy ushbu asarni yozishga uning ko'rgan tushi turtki bo'lganini aytadi. Bu haqda Imom-Buxoriy "Tushimda Payg'ambarimiz (s.a.v.) ko'rdim. Men bu zotni huzurlarida turib, qo'limdagi yelpig'ich bilan yelpib turgan ekanman. Bu tushning ta'birini ba'zi ta'birchilardan so'raganimda, ular: "Sen Payg'ambarimiz (s.a.v.)ni yolg'ondan himoya qilar ekansan", dedilar. Bu tush meni ushbu asarni yozishga undadi", deb keltirib o'tgan.[2]

Imom Qastaloniy Buxoriy ilmiy merosi haqida: "Imom al-Buxoriyning asarlari quyosh yetgan joygacha yetib boradi. Dunyoning hamma yerini egallaydi. Uning fazilatini hech kim va kech nima inkor eta olmaydi" deb ma'lumot beradi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki: Imom al-Buxoriy "Hadis bilimining buyuk otasi, Islom ilmining yorqin yetakchisi va o'chmas arbobi, o'tmish uchun ibrat, kelakajak uchun o'rnak va dunyo uchun komil inson" deb baland ovozda bemalol g'urur to'la faxr bilan ayta olamiz. Ushbu insonning hayot yo'llari biz kelajak bunyodkori hisoblangan yoshlar uchun juda katta ibratli yo'l va dasturamal bo'lib xizmat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Buyuk yurt allomalari. O’zbekiston xalqaro Islom Akedemiyasi. (3-nashr). –T:O’zbekiston, 2020. B. 426.

2. Imom Buxoriy. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O’zbekistondagi Islom svilizatsiyasi markazi tomonidan nashr qilingan IBXITM-2020. B. 16.

3. Norova O. Hadis ilmining paydo bo’lishi. (Kurs ishi). Samarqand. 2015.

4. "Islom ma’rifati-hamisha navqiron Moturidiy” O’zbekiston musulmonlar idorasi raisining birinchi o’rinbosari Homidjon Ishmatbekov.8.11.2022-yilda chop etilgan maqola. **https://moturidiy.uz/oz/news/1639.**

5.